

**FHDYO ORGANLARIDA NIKOHDAN AJRATISH TARTIBI**

Yangiboyev Farhod Rashidovich

O'zbekiston Respublikasi IIV Surxondaryo akademik litseyi huquq fani

o'qituvchisi 93-769-95-89

Farhod.yangiboyev@list.ru

Annotatsiya: *Oila qurishni asosi nikoh hisoblanadi. Oila jamiyatning asosiy hujayrasi va ijtimoiy tayanchidir. Shunday ekan jamiyatdagi nikohdan ajralishlar sonini kamaytirish maqsadga muvofiqdir. Mazkur maqolada yurtimizdagi ajrimlar soni statistik jihatidan tahlil qilingan va takliflar ilgari surilgan. Bu ishda statistik, kuzatish metodlaridan foydalanildi. Ushbu maqolada ilgari surilgan takliflarni qonun ijodkorligi jarayonida, FHDYO va sud organlari faoliyatida qo'llash mumkin.*

Kalit so'zlar: *Oila, nikoh, nikoh yoshi, nikohdan ajratish, FHDYO*

Bilamizki, oila jamiyatda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Oilada oilaviy munosabatlar qanchalik to'g'ri yo'lga qo'yilgan bo'lsa, uning shunchalik mustahkam bo'lishi, bu o'z navbatida, jamiyatning ham mustahkamlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatishi amaliyotida sinovdan o'tgan omillardandir. Shu sababli oilaviy munosabatlarning huquqiy asoslarini takomillashtirish, oilaviy-huquqiy normalarini to'g'ri talqin etish va oila a'zolarining huquq va manfaatlarini ta'minlash alohida e'tiborga molikdir. Ana shu holatlarni e'tiborga olgan davlatimiz nikoh, uni tuzish tartibi va shartlari, nikohdan ajralish, nikohni haqiqiy emas deb topish bilan bog'liq munosabatlarga befarq bo'lmay, ularni tartibga soluvchi huquqiy asoslari belgilab qo'yilgan.

Oilani mustahkamligi avvalo oila salomatligi, onalik va bolalikni muhofaza qilishga bog'liq hisoblanadi. Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan Harakatlar strategiyasida ham mazkur jihat o'z ifodasini topdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli farmoni bilan tasdiqlangan "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor



yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da oila salomatligini mustahkamlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. Ushbu jihatdan ham anglashiladiki, onalik va bolalikni himoya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda onalik va bolalikni muhofaza qilishga va oilani saqlab qolishga qaratishga qaratilgan chora-tadbirlarga qaramasdan ajrashish holatlari yuz bermoqda. Bilamizki, nikohdan ajratishning sud tartibi bilan birga ma'muriy tartibi ham mavjud. Bu Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida nikohdan ajratish hisoblanadi. Mazkur tartib er-xotinlik munosabatlarini bekor qilishning nisbatan oddiy va soddalashtirilgan tartibi hisoblanadi. Bunda nikoh fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organida nikohdan ajratiladi va sud jarayoni bo'lmaydi.

Oila kodeksining 42-moddasiga muvofiq, voyaga yetmagan bolalari bo'lmagan er-xotin nikohdan ajralishga o'zaro rozi bo'lsalar, ular nikohdan fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida ajratiladi. Shu o'rinda bolalari bor yo'qligini aniqlanib olinishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Turmush o'rtoqlar ajrashish to'g'risidagi arizalarida ajrashish va voyaga etmagan bolalari yo'qligi haqida o'zlarining roziliklarini tasdiqlashlari kerak, agar ajralish kunida turmush o'rtoqlardan biri FHDYo bo'limida bo'lolmasa, u holda ajrashish uchun ham rozilik berishi kerak. FHDYo organlari umumiy voyaga etmagan bolalarning yo'qligi yoki mavjudligini tasdiqlash uchun tegishli organlarga murojaat qilish huquqiga ega (Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish qoidalarining 387-sonli 108-bandi). Mazkur holat albatta nikohdan ajratishning qonuniyligini ta'minlash nazarda tutgan. Er-xotin o'rtasida mehnatga layoqatsiz, muhtoj er yoki xotinga moddiy ta'minot berish to'g'risida yoki ularning birgalikdagi umumiy mol-mulkini bo'lish to'g'risida nizo chiqqan taqdirda, er-xotin yoki ulardan biri nikohdan ajratish to'g'risidagi ariza bilan sudga murojaat etishga haqli. O'zbekiston Respublikasida er-xotinlar nikohni bekor qilish to'g'risida qaror qabul qilgandan so'ng, aksariyat hollarda ular bir shaharda yoki turli shahar va tumanlarda alohida yashaydilar. Va keyin savol tug'iladi, qaysi tuman yoki shaharning FHDYo bo'limiga ajrashish uchun ariza berish kerak? Bunday holda, 2016 yilgi FHDYo qoidalarining 108-bandi 1-qismiga muvofiq, turmush o'rtoqlar



turmush o'rtoqlardan birining yashash joyidagi FHDYo bo'limiga murojaat qilishlari kerak. Nikohdan ajralish ariza beruvchining yashash joyidagi Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organiga ariza berilgan kundan boshlab uch oy muddat o'tgach qayd etiladi.

Oila kodeksining 43-moddasiga muvofiq, agar er-xotindan biri:

- sud tomonidan bedarak yo'qolgan deb topilgan bo'lsa;
- sud tomonidan ruhiyati buzilishi (ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi) sababli muomalaga layoqatsiz deb topilgan bo'lsa,
- sodir qilgan jinoyati uchun uch yildan kam bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilingan bo'lsa, o'rtacha voyaga yetmagan bolalari borligidan qat'i nazar, er-xotindan birining arizasiga ko'ra ular fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida nikohdan ajratiladi.

Agar bolalar haqida, er-xotinning birgalikdagi umumiy mol-mulkini bo'lish haqida yoki yordamga muhtoj, mehnatga layoqatsiz er(xotin)ga ta'minot berish uchun mablag' to'lash haqida nizo mavjud bo'lsa, ular nikohdan sud tartibida ajratiladi.

Bunda quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

- er(xotin)ning bedarak yo'qolgan deb topilganligi yoki muomalaga layoqatsizligi to'g'risida sudning qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori;
- er(xotin) uch yildan kam bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilinganligi to'g'risida sudning qonuniy kuchga kirgan hukmidan ko'chirma, shuningdek sudlangan er(xotin)ning o'rtadagi bolalari va mol-mulki yuzasidan nizosi yo'qligi to'g'risida tilxat. Nikohdan ajralishga er-xotinning o'zaro roziligi ularning har ikkalasi tomonidan berilgan yoki har biri mustaqil bergan arizalarida ifodalanishi mumkin.

Nikohdan ajralish to'g'risidagi arizani qabul qilgan fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlari ajralish to'g'risida ariza bergan kundan uch oy o'tgandan keyin ajralishni rasmiylashtirib, ularga nikohdan ajralish to'g'risida guvohnoma beradi. FHDYo organlari yarashtirish tartib-taomilidan o'tgandan keyin va oilani yanada saqlab qolishning iloji yo'qligi to'g'risida bayonnoma olgandan so'ng, agar er-xotinning ikkalasi yoki biri hozir bo'lsa va ularning har biriga



guvohnoma berilgan bo'lsa, ariza berilgan kundan boshlab 3 oy o'tgach, nikohni bekor qiladi. Uch oylik muddatni belgilashda ham xuddi sudda er-xotinning yarashib ketishi uchun berilgan muddatdan ko'zda tutilgan maqsad bo'ladi. Shu davr mobaynida er-xotin o'z xatti-harakatlarini yana bir oylab ko'rib, uning to'g'ri-noto'g'riligini aniqlab olish mumkin.

Bu uchta asos bo'yicha nikohdan ajratish soddalashtirilgan tartibda amalga oshiriladi, chunki bunda ajralish uchun ikkinchi tomonning roziligi talab etilmaydi va er-xotinda voyaga yetmagan bolalar bor-yo'qligi FHDYoga murojaat uchun to'siq bo'lmaydi. Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish qoidalarining 113-bandiga binoan nikohdan ajratishni qayd etishda er va xotinning o'zaro kelishuviga ko'ra, ularning biridan yoki ikkalasidan belgilangan tartibda davlat boji undiriladi. Agar turmush o'rtoqlardan biri bo'lmasa, FHDYo davlat bojini to'liq undiradi. Nikohdan ajralishni FHDYo organida qayd etganlik uchun davlat boji stavkalarining 5-bandiga "b" kichik bandiga muvofiq, er-xotinning o'zaro roziligi bilan davlat bojining miqdori bazaviy hisoblangan qiymatning 150 foiziga teng miqdorda undiriladi. Suddan farqli o'laroq, FHDYo organlari nikohdan ajraluvchilarning moddiy va oilaviy ahvoliga qarab davlat boji miqdorini kamaytira olmaydilar yoki uni to'lash majburiyatidan ozod etolmaydilar. Nikohdan ajraluvchi shaxslarning o'zlari bu summani to'lashlari lozim.

Ajralishni rasmiylashtirish va er-xotonga nikohdan ajralish to'g'risidagi guvohnoma ariza bergan kundan boshlab uch oy o'tgandan keyin beriladi. Shu vaqtdan boshlab nikoh tugallangan hisoblanadi va er-xotin yangi nikohga o'tish huquqiga ega. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, er-xotinni sud tartibida ajratishda belgilangan miqdordagi davlat bojini tomonlardan qaysi biri qanday holatda to'lash lozimligi to'g'risidagi aniq tartibni qonunchilikka joriy etish maqsadga muvofiq holat hisoblanadi. Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish qoidalarining 113-bandiga binoan nikohdan ajratishni qayd etishda er va xotinning o'zaro kelishuviga ko'ra, ularning biridan yoki ikkalasidan belgilangan tartibda davlat boji undirilishi belgilan o'tilgan.



Ushbu holatdan ham anglashiladiki, davlat bojini to'lash tartibini qaysi tomon qanday tartibda to'lash lozimligini aniq tartibini ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shunda tomonlar o'rtasida to'lov masalasida muommo chiqmasligiga sabab bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida nikohdan FHDYO tartibida ajratishda Nikohdan ajralish ariza beruvchining yashash joyidagi Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organiga ariza berilgan kundan boshlab uch oy muddat o'tgach qayd etilishi belgilangan. Uch oylik muddatni belgilashda ham xuddi sudda er-xotinning yarashib ketishi uchun berilgan muddatdan ko'zda tutilgan maqsad bo'ladi. Ushbu muhlatni uch oydan olti oyga o'zgartirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki ushbu muddat davomida er-xotin o'z harakatlarini to'g'ri yoki noto'g'riligini anglab yetishiga yetishiga oz muddat hisoblanadi. Ushbu holatni inobatga olgan holda ushbu muddatni uch oydan olti oyga o'zgartirishimiz o'rinli hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli farmoni bilan tasdiqlangan "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
3. Oila huquqi. Darslik. Mualliflar jamoasi. O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, prof. O.I.Oqyulovning umumiy tahriri ostida - T.:nashriyoti, 2017.182 bet.
4. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi 01.09.1998.
5. Otaxo'jayev Fozil Maqsudovich, yuridik fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Yo'ldosheva Shoirah Rahmatovna, yuridik fanlari nomzodi, Oila huquqi: Darslik; Mirzayusuf Hakimovich Rustambekovning umumiy tahriri ostida.-T.:2007.244 bet.